

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK O'RNATISHNING PEDAGOGIK -PSIXOLOGIK OMILLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18500621>

Sadullayeva Maftuna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Saparova Umida Baxromovna

(E-mail: umidasaparova7@gmail.com)

(F-ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-5709-4073>)

*Tashkent University of Applied Sciences, 1 Gavhar Street, Tashkent, 100149,
Uzbekistan*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalar bilan ishlash usullari, tarbiyaviy jarayonda ularning ishtiroki va mas'uliyatini oshirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirishda oila va maktab hamkorligi, oila va yosh psixologiyasi va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalari shuningdek, ota-onalar o'rtasidagi samarali muloqot, o'quvchilarning shaxsiy intellektual rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omil ekanligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar

Boshlang'ich sinf, ta'lim-tarbiya, metodika, o'qituvchi, hamkorlik, ota-ona, jarayon, motivatsiya, psixologiya, ijtimoiy moslashuv, pedagogik mahorat, intellektual rivojlanish.

Abstract

This article discusses the methods of working with parents of primary school students, increasing their participation and responsibility in the educational process, family and school cooperation in the social adaptation of primary school students, family and youth psychology, and pedagogical skills and pedagogical technologies of primary school teachers, as well as effective communication between parents, which is an important factor influencing the personal intellectual development of students.

Keywords

Primary school, education, methodology, teacher, cooperation, parents, process, motivation, psychology, social adaptation, pedagogical skills, intellectual development.

Аннотация

В статье рассматриваются методы работы с родителями учащихся начальной школы, повышение их участия и ответственности в образовательном процессе, сотрудничество семьи и школы в социальной адаптации учащихся начальной школы, семейная и молодежная психология, педагогические навыки и педагогические технологии учителей начальной школы, а также эффективная коммуникация между родителями, являющаяся важным фактором, влияющим на личностное интеллектуальное развитие учащихся.

Ключевые слова

начальная школа, образование, методология, учитель, сотрудничество, родители, процесс, мотивация, психология, социальная адаптация, педагогические навыки, интеллектуальное развитие.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri-bu oila, maktab va jamiyat o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. Chunki bola tarbiyasi faqat maktab yoki faqat oila zimmasidagi vazifa emas, balki ularning o'zaro uzviy aloqasiga asoslangan kompleks jarayondir. Shu nuqtai nazardan, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish va uni ilmiy asosda yo'lga qo'yish masalasi bugungi kunda dolzarb bo'lib kelmoqda. Insonni shaxs sifatida shakllanishida bolalik davri eng muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichi asosiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi va uzliksiz ta'limning bir qismi bo'lib, 1-4 sinflarni qamrab oladi.

Asosiy qism. Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni aqliy, jismoniy, ruhiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik texnologiyalaridan, interfaol usullardan foydalangan holda darslarni samarali tashkil qilib, o'quvchilarni tartib intizomli va bilimga chanqoq, vatanparvarlik ruhida bilim berish asoslarini yaratishdan iborat. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ma'lum malaka talablari va shaxsiy fazilatlariga ega, oliy ma'lumotli shaxs hisoblanadi. Ular o'zida kasbiy kompetentlik ya'ni o'z fanini mukammal bilishi va zamonaviy ta'lim texnologiyalardan foydalana oladigan hamda psixologik ko'nikmalarga ega jumladan, bolalarni yosh xususiyatlarini, xulq-atvorini o'rganishi har qanday vaziyatda o'quvchilar ko'ngliga yo'l topa oladigan, darslarni qiziqarli o'tishi uchun ijodkor va sabrlik va chidamlilik xususiyatlarini o'zida jamlagan bo'lishi zarur.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining quyidagi asosiy majburiyatlari mavjud: darslarni ta'lim standartlari asosida o'tish va o'quvchilarni bilim sifatini ta'minlash, tarbiyaviy ishlar bilan shug'ullanish, hujjatlashtirish va o'quvchilarning ta'lim va tarbiyaviy masalalari bo'yicha ota-onalar bilan hamkorlikni o'rnatish. Prezidentimiz ta'lim tizimini isloh qilishda "maktab-ota-ona" zanjirini mustahkamlashni asosiy vazifa qilib qo'yganlar. Prezidentimizning mas'uliyat haqida "Farzandlarimiz tarbiyasida, ularni zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashida maktab bilan birga ota-onaning ham mas'uliyati katta. Agar maktab bilan oila o'rtasida mustahkam hamkorlik bo'lmasa, ko'zlangan natijaga erishish qiyin" degan fikrlari mavjud.

Shuningdek, Abu Ali ibn Sino, Abdulla Avloniy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib kabi buyuk allomalarimiz ota-ona va muallim hamkorligini bolaning komil inson bo'lib yetishidagi asosiy omil deb bilishgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida ota-onalarning maktab hayotidagi faol ishtiroki, ularning bola psixologiyasi va bola shaxsiy rivojlanish jarayonidagi rolini chuqur anglashiga va pedagogik -psixologik hamkorlikning mustahkam va ishonchli o'rnatilishiga, o'quvchilarning ustozga bo'lgan hurmatini ortishiga, ta'limni samarali bo'lishiga asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining ota-onalar bilan samarali mustahkam hamkorlikni o'rnatib interfaol ishlashi bolaning muvaffaqiyatli o'qishi va har tomonlama rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onalar bilan hamkorlikning quyidagi asosiy usuli mavjud bo'lib, bular:

An'anaviy usul. Bu usulning quyidagi shakllari yordamida hamkorlik o'rnatish mumkin.

Ota -onalar majlisi: Bu ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakli bo'lib, sinf jamoasi hayotidagi muhim masalalar va yangiliklar muhokama qilinadi.

Individual suhbatlar va uchrashuvlar: Bunda o'quvchilarning ota-onalari bilan yakka tartibda uchrashuvlar tashkil etilib, o'quvchining xulqi, o'zlashtirishi, muvaffaqiyatlari va kamchiliklari muhokama qilinadi.

Ota -onalar qo'mitasi: Bunda maktab yoki sinfdagi ota-onalardan iborat faol guruh tuzilib, ular ta'lim jarayonini yaxshilashga yaqindan yordam berishadi.

Kundalik va xabarnomalar: Bunda o'qituvchi ota -onalarga o'quvchilarning kundalik yutuqlari, sinf qoidalari yangiliklar davomat haqida doimiy ravishda ma'lumot berib boriladi.

2. Innovatsiyon va zamonaviy usullar: Bu usulning quyidagi shakllari yordamida muloqot o'rnatish mumkin.

Virtual muloqot telegram, whatsappdagi guruhlar orqali kunlik ma'lumotlar va e'lonlar almashinuvi.

Elektron platformalar:kundalik.com orqali baholar uy vazifalari va davomatni onlayn kuzatish

Onlayn so'rovnomalar bunda ota-onalar bilan aloqani mustahkamlash,fikr mulohazalar yig'ish va ta'lim sifatini oshirishning tezkor usullaridan biridir.

Trening va seminarlar o'tkazish:Ota -onalarining pedagogik madaniyatini oshirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar treninglar va seminarlar o'tkazish.

Jamoaviy loyihalar va tadbirlar bu o'quvchilar va ota onalarni birgalikda birlashtirib jamoa bo'lib ishlashi .

Pedagog ota-onalar bilan hamkorlik qilishda ishonch va hurmat muhitini yarata olishi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi.Quydagi metodlardan foydalanish samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

Anketalar va so'rovnomalar:oiladagi muhit bolaning qiziqishlari, ota-onaning tarbiya usullarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Suhbat:o'quvchilarning muammo va yutuqlari ,kamchiliklari muhokama qilinadi.

Testlar:bunda oiladagi o'rni,mas'uliyatni qanday his qilishlari,qiziqishlari , kamchiliklar aniqlanadi.

Art-terapiya:ota ona va bola birgalikda rasm chizish orqali yaqinlikka erishiladi.

Psixologik qo'llab quvvatlash ota-onalarni ayblash emas balki, uning muammo va qiyinchiliklariga birga yechim topish.

Ijobiy motivatsiya faqat bolasini kamchiliklarini emas, balki uning kichik yutuqlarini ham bo'lishib xabar va tashakkurnomalar yuborish.

Xulosa: Xulosa o'rnida, Shuni takidlashimiz kerakki, pedagogik- psixologik metodlar ota-onani shunchaki kuzatuvchi emas, balki ta'lim jarayonining faol a'zosiga aylantiradi.Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun maktabga ko'nikish qiyin kechadi.Ota -onalar bilan to'g'ri o'rnatilgan psixologik hamkorlik o'quvchilardagi stressni Natijada ota-ona maktabni o'ziga dushman yoki tekshiruvchi emas,balki farzandi kelajagi uchun jonkuyar ustoz va jamoa ekanligi his etadi.Ota-onalar bilan ishlashda metodik mahorat va psixologik bilimning uyg'unligi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi,balki bolaning sog'lom va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun eng asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tavsiya va takliflar: Bugungi kunda maktab va oila hamkorligining bola shaxsiga ta'siri,bu jarayonning dolzarbligini hisobga olib quydagi amaliy metodlarni qo'llash samarali "Interaktiv ochiq eshiklar kuni":faqat dars kuzatish emas,balki ota-onalarni dars jarayoniga master-klass sifatida jalb qilish. Alohida uyga vazifalarni "ota-onam bilan bajardim"shaklida loyiha ko'rinishida tashkil etish."Rollar almashinuvi":Ota-onalar majlisida ota-onalarga o'quvchi ro'lini berish

orqali bolaning maktabdagi holatini his qildirish. Ota-onalar majlisini zerikarli va doim muammoli vaziyatlar shaklida tashkil etmaslik. Kamchiliklarni hammani oldida tanqid qilmaslik balki bu muammolarni faqat yuzma- yuza hal qilish lozim deb hisoblayman

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. **Mirziyoev Sh.M.** "Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir" mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. –T. 2021 yil 20 avgust.
3. **Boboqulova D.** O'quvchilarga dastlabki tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Toshkent: Ta'lim, 2022. – 76 b.
4. **Abdiyeva Q.A.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining steam ta'limi orqali o'z o'zini rivojlantirish usullari- Eurasian Journal of Academic Research, 2024
5. **Bovanova U.A** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof- muhitga ekologik munosabatni takomillashtirishda didaktik o'yinalarning ahamiyati. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(7 (Special Issue), 401–405. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/35744>
6. **Saparova U.B.** Specific aspects of forming economic educational skills of students of primary education institutions of higher education // *European Science Methodical Journal*. – 2024. – Vol. 2, Issue 12. – P. 82–90. ISSN (E): 2938-3641.
7. **Saparova U.B.** Pedagogical Principles of Forming Economic Education Skills in Primary Class Students with Family Partnership // *Best journal of innovation in science, research and development*. – 2023. – Vol. 2, Issue 9.
8. **Saparova U.B.** Theoretical principles of forming the skills of economic education in students // *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*. – 2023. – Vol. 11. – September. ISSN: 2795-5621.
9. **Shoumarov G'.B.** Oila psixologiyasi: Ota-onalar va o'qituvchilar hamkorligi.
10. **Xalilova S.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida maktab va oila hamkorligining innovatsion shakllari. – Metodik qo'llanma.
11. **Azizxo'jayeva N.N.** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.